

## «XXI ASRDA BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI»

*Nurmatova Barchinoy*, biologiya fani o'qituvchisi,  
Farg'onha viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi,

**Annotatsiya:** Respublikamizning mustaqillikka erishishi, jamiyatda ro'y berayotgan ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, uzlusiz ta'lif tizimining joriy etilishi, uzlusiz ta'lif tizimi turlari o'rtasida uzviylik va izchillikni amalga oshirish, modernizatsiya qilingan davlat ta'lif standartlari va yangi taxrirdagi biologiya o'quv dasturi, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishning reyting tizimini amapiyotga ko'llanilishi, biologiya o'kituvchilarini zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish maqsadi biologiya o'qitish metodikasi kursi mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Ushbu maqolada XXI asrda biologiya o'kitish metodikasini rivojlanantirish istiqbollari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** biologiya, innovatsiya, pedagogik faoliyat, o'qitish metodikasi, zamonaviy metodik bilim, ekologiya.

XX-XXI asrda fan va texnika rivojlanib ketdi. Biologiya fanining yutuqlari ishonchli tarzda insoniyat yangi asrga - biologiya asriga kirib borganligi haqida dalolat bermoqda. Biologiya fanining yutuqlari ko'p jihatidan tabiiy fanlar fizika, ximiya, matematika, astronomiya va boshqa fanlar sohasida erishilgan yutuqlardan foydalanish natijasida yuz bermoqda. Bu fanlarning yutuqlari va metodlari asosida elektron mikroskopiya, spektroskopiya, rentgenostruktura tahlili, hujayraning molekulyar va submolekulyar darajada o'rganish imkonini beradi. Bioximiya va biofizika metodlari asosida tajribalar o'tkazish natijasida moddalar almashinuvni ayniqsa oqsil biosintezining mexanizmi ochib berildi, fotosintez sirlario. Irsiyatning moddiy asosi DNK va RNK strukturasi, funktsiyasi ayon bo'ladi, genetik kod tilsimi ma'lum bo'ldi. Hozirgi davrga kelib, biologiya o'qitish metodikasida o'tkazilgan pedagogik tajribalar natijasida «Biologik tushunchalarni rivojlanantirish», «Biologiyada o'qitish shakllarining sistemasi», «Biologiyada o'qitish metodlari», «Biologiya o'qitishda nazariya va amaliyot birligi», «Biologiyani o'qitishda ekologik tushunchalarni rivojlanantirish», «Biologiya o'qitishning moddiy bazasi», «Biologiya o'kituvchilarini ilmiy-metodik tayyoragarlik darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti» kabi nazariyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Respublikamizda uzlusiz ta'lif tizimining joriy etilishi, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy-ma'naviy o'zgarishlar barcha o'quv fanlari kabi biologiya o'qitishni ham zamon talablariga moslashtirishni taqozo etadi. Biologiya o'qitish metodikasining bugungi kunda dolzarb muammolaridan biri,

biologiyani o'qitishda uzlusiz ta'lismiz turlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lismiz, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, Oliy ta'lim o'rtasidagi uzviylik va izchillikni ta'minlashdir. Ushbu muammoni hal etish maqsadida yuqorida qayd etilgan uzlusiz ta'lismizning turlari uchun biologiyadan DTS va o'quv dasturlari ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra biologiyadan modernizatsiya qilingan DTS va yangi tahrirdagi o'quv dasturlari amaliyotga joriy etildi. Biologiyadan modernizatsiya qilingan DTS va yangi tahrirdagi o'quv dasturlari amaliyotga joriy etish samaradorligini orttirish uchun biologiya o'qitish metodikasi quyidagi muammolarini hal etishi zarur:

- O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish yo'llari, xususan, biologiyani o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish metodikasini yaratish;
- Biologiya o'qitishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish samaradorligini orttirish yo'llarini ishlab chiqish;
- O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimini joriy etishning metodik ta'minotini yaratish.
- Biologiyani o'qitishda o'quvchilar ma'naviy-axfoqiy, aqliy, huquqiy, gigienik, iqtisodiy, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash mazmuni, metodlari va shakllarini ishlab chiqish;
- Biologiya o'qitishda o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish mazmuni, metodlari va shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; Pedagogika oliy o'quv yurtlarida biologiya o'qitish metodikasi kursini o'qitish jarayonida:
  - ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy yo'naliшning ustuvorligini ta'minlash;
  - o'quv rejadan o'rın olgan har bir o'quv kursining bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda, xususan, kasbiy-pedagogik tayyorgarligini tarkib toptirishda tutgan o'rni va ulushini aniqlash, shu asosda ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik maqsadi, mustaqil ta'lim mazmunini aniqlash, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarni o'quv-bilish faoliyatining sub'ektiga aylantirish yo'llarini belgilash;
  - biologiya o'quv kurslarini o'qitishda kasbiy yo'naltirishni amalga oshirish va talabalarning ilmiy-nazariy tayyorgarligini ilmiy-metodik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish muammolarini ishlab chiqish lozim.
- Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida:
- o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini aniqlashning reyting tizimini ishlab chiqish;
- pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida

- tinglovchilarning mustaqil ishlari va maqsadli ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- biologiya o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida masofadan o'qitishni joriy etishning metodik asoslarini ishlab chiqish zarur.
  - Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma'lum bosqichida lokal (modul) darajada qo'llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o'r ganilib, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o'yin mashqlar, musobaqa, trening o'tkazadi.

O'quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko'nikma va malakalarni egallagandan so'ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o'tkazishi, ya'ni xususiy metodik darajada qo'llashi mumkin.

Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi o'r ganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, darsda o'quvchilarning bilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo'llarini belgilashi lozim.

Biologik ta'lim samaradorligini oshirish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratish, ya'ni biologiya o'qitishning moddiy-texnika bazasini yaratish zarur. O'qitishning moddiy bazasi ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan, bir-biri bilan uzviy bog'langan, shuningdek, bir-birini to'ldiradigan biologiya o'quv xonasasi, tirik tabiat burchagi, maktab tajriba yer maydonchasidan tashkil topadi. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, o'quv faoliyati vaqtining katta qismi biologiya o'quv xonasida o'tganligi sababli, mazkur jarayonning samaradorligi biologiya o'quv xonasining maqsadga muvofiq tashkil etilishi va uning jihozlanganligiga bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Tolipova J. O., Govurov A.T. Biologiya oqitish metodikasi. Oliy oquv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2012.
  - 2.Tolipova J.O., Govurov A.T. Biologiya oqitish metodikasi. Oquv-metodik qollanma. Toshkent, 2004.
  - 3.Tolipova J.O., Govurov A.T. Biologiya talimi texnologiyalari. Toshkent, 2002.
  - 4.Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent, 2012.
- Bekniyozov N.M. Oqituvchi nimalarni bilishi kerak? Oquv-metodik qollanma,